

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini
ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

2026-yil 1-avgust holatiga

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-sonli farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

Har haftaning dushanba kunlari vazir huzurida hamda juma kunlari vazirning ijro intizomiga mas’ul o‘rinbosani huzurida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari va Hukumatning hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi tanqidiy muhokama qilib borilmoqda.

2026-yilning iyul oyida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarini 25-iyulga qadar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan I–II va III kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 26-iyun kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Joriy yilning iyul oyida vazirlik asosiy ijrochi bo‘lgan Davlat rahbarining jami 330 ta topshirig‘idan 327 tasi, ya’ni 99,1 foizi bajarilgan, 1 tasining muddatini uzaytirish yuzasidan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan va 2 tasini bajarish choralari ko‘rilmoqda, Prezident Administratsiyasi rahbarining 39 ta topshirig‘i hamda Vazirlar Mahkamasining 35 ta topshirig‘i to‘liq bajarilgan.

Shuningdek, 2026-yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 177 ta, Administratsiya rahbarining 17 ta hamda Vazirlar Mahkamasining 28 ta topshirig‘i nazoratga olingan.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi